



Stages of formation and development of the system of internal affairs bodies in Uzbekistan

Kuvonch KODIROV¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Received April 2023
Received in revised form
15 May 2023
Accepted 15 June 2023
Available online
25 June 2023

Keywords:

security,
protection,
public order,
crime control,
offense,
police,
internal affairs bodies.

ABSTRACT

The article describes the stages of formation and development of the system of internal affairs bodies, processes, and further plans for their activities. It is known that internal affairs bodies are a system that carries out complex and multifaceted activities in order to ensure public order and security in society, protect the rights, freedoms, and legitimate interests of citizens, and prevent crimes.

The purpose of the research is to reveal that in the history of Uzbek statehood, which has passed the path of development for almost three thousand years, there was a great need for a system of internal affairs to ensure the security of society, the peace, and tranquility of the country, the inviolability of borders, the will and freedom of the people, cultural development. Methods of the research are general, and scientific, including logical, archival source study, and analysis of the content of documents. Over the past short period of time, large-scale reforms have been implemented aimed at radically improving and updating the system of internal affairs bodies and their activities. Today, in the ranks of the internal affairs bodies, it is necessary to educate the worthiest employees who love our Motherland, and is faithful to their duty, and ensure a peaceful and peaceful life in our holy land.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss3-pp138-149>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Doctor of Philosophy in History, Associate Professor, Researcher, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

О'zbekistonda ichki ishlar organlari tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

xavfsizlik,
himoya qilish,
jamoat tartibini saqlash,
jinoyatchilikka qarshi
kurash,
huquqbuzarlik,
militsiya,
ichki ishlar organlari.

Maqolada ichki ishlar organlari tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, jarayonlari hamda faoliyatining kelgusidagi rejalari ko'rsatib o'tilgan. Ma'lumki, ichki ishlar organlari jamiyatda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, jinoyatlarning oldini olish bo'yicha keng qamrovli va ko'p qirrali faoliyatni amalga oshiruvchi tizim hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi qariyb uch ming yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan o'zbek davlatchiligi tarixida jamiyatning xavfsizligi, yurt tinchligi va osoyishtaligi, chegaralar daxlsizligi, xalqning erki va ozodligi, madaniy taraqqiyotini ta'minlash uchun ichki ishlar tizimiga ehtiyoj katta bo'lganligini ochib berish. Tadqiqot usullari: umumiy, ilmiy, shu jumladan mantiqiy, arxiv manbalari, hujjatlar mazmunini tahlil qilish. O'tgan qisqa davr ichida shonli ichki ishlar organlari tizimi va uning faoliyatini tubdan yaxshilash, yangilash borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi. Bugungi kunda ichki ishlar organlari safida ona Vatanimizni chin dildan sevadigan, burchiga sadoqatli muqaddas zaminimizdagi tinch va osuda hayotni ta'minlab beradigan eng munosib xodimlar qilib tarbiyalash zarur.

Этапы становления и развития системы органов внутренних дел Узбекистана

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

безопасность,
охрана,
охранят общественного
порядка,
борьба с преступностью,
правонарушение,
милиция,
органы внутренних дел.

В статье описаны этапы становления и развития системы органов внутренних дел, процессы и дальнейшие планы их деятельности. Известно, что органы внутренних дел представляют собой систему, осуществляющую комплексную и многоплановую деятельность в целях обеспечения общественного порядка и безопасности в обществе, защиты прав, свобод и законных интересов граждан, предупреждения преступлений.

Целью исследования является выявить, что в истории узбекской государственности, прошедшей путь развития почти три тысячи лет, существовала большая потребность в системе внутренних дел для обеспечения безопасности общества, мира и спокойствие страны, нерушимость границ, волю и свободу народа, культурное развитие. Методы исследования общий, научный, в том числе логический, архивный источниковедческий, анализ содержания документов. За прошедший короткий период времени были осуществлены масштабные реформы, направленные на коренное совершенствование и обновление системы органов

внутренних дел и их деятельности. Сегодня в рядах органов внутренних дел необходимо воспитывать самых достойных сотрудников, любящих нашу Родину, верных своему долгу и обеспечивающих мирную и мирную жизнь на нашей святой земле.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida xavfsizlik masalasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Manbalarda turli tarixiy jarayonlarda erkaklarning o'z oilasi, hududi tinchligini himoya qilishi to'g'risida ko'plab ma'lumotlar uchraydi [1]. Xususan bu bo'yicha ayrim tarixiy ma'lumotlar qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya", Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" asarlarida, XVII asrda Sibir, Mo'g'uliston, Oltoy va Markaziy Osiyodan topilgan qadimgi turk manbalari, ya'ni bitiklarda, xalq og'zaki ijodi namunalari saqlanib qolgan. Shuningdek, "Avesto"da ham qadimgi ajdodlarimizning o'z mol-mulklarini begonalardan himoya qilish, asrash, qo'shni hudud yaxlitligini, xavfsizligini ta'minlash (hoz. jamoat tartibini saqlash) bilan bog'liq fikrlar uchraydi.

Hattoki, o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan Amir Temur davriga oid muhim manba "Temur tuzuklari"da mavzuga doir masalalarga ham qisman alohida o'rin berilganligini ko'rish mumkin. Ma'lumki, Amir Temur tashkiliy jihatdan mukammal, ma'lum taktika va strategiyaga amal qilgan va o'z vaqtida yaxshi qurollangan qudratli, zamonaviy armiyaga asos solgan. U o'z tuzuklarining oxirgi boblarida armiyaning tashkiliy va tuzilmaviy jihatlari, shuningdek, davlatchilikning tashkiliy tadbirlari orqali huquq-tartibot ishlariga o'rin berib o'tgan. Jumladan, "Saltanatni idora qilish tuzugi"da quyidagi fikrlar diqqatga sazovordir: "Amr etdimki, o'g'ri va qaroqchilarni "Yasa" asosida jazolasinlar; fasodchi, buzuqi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar. Ezma-bekorchi odamlarni viloyat va shaharlarda qoldirmasinlar. Har bir shahar va qishloqqa kutvol tayinlasinlarki, sipohu raiyatga soqchilik qilsin va kimning biron narsasi o'g'irlansa, buning mas'uliyati uning zimmasida bo'lsin. Va yana buyurdimki, yo'l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo'llarni qo'riqlab, yo'lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo'ysinlar. Yo'l ustida birortasining narsasi yo'qolsa, o'zi o'ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo'lsin" [2].

"Urushda va tinchlikda soqchilik qilish, majlis-yig'inlarda hozir bo'lish tuzugi"da soqchilik tizimini (ya'ni hozirgi Ichki ishlar idoralaridagi qo'riqlash tizimiga o'xshash) tartiblari haqida to'xtalib, masalaning quyidagi jihatlari e'tiborni qaratadi: "Yana hukm qildim, atrofimda joylashgan lashkar va O'rduga, har biriga bittadan kutvol tayinlasinlar va o'rduni qo'riqlash, soqchilik qilish ishlari shular ustiga yuklansin. Bozor ahlidan [3] soliq olish ham shular zimmasida bo'lsin. Agar o'rdi ahlidan biron kimsaning narsasi o'g'irlansa, ular javobgarlikka tortilsinlar" [3-123].

Amir Temurning bu sohaga bo'lgan e'tiborini ulkan saltanatning "u chetidan bu chetigacha biror bolakay boshida bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga xam zarar yetmaydigan tartib-intizom" o'rnatilganligida xam ko'rish mumkin bo'lgan [4].

NAZARIYA VA AMALIYOT TAHLILI

Umuman olganda, O'zbekiston ichki ishlar organlari qariyb bir asrga yaqin tarixga ega hisoblanadi. Bu tizimning shakllanishi O'zbekiston hududida sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan boshlanadi. Garchand, sovet davri xronologiyasida mazkur tuzilmani sobiq ittifoq miqyosida tashkil etilish faoliyati bo'yicha tadqiqot mavzusi doirasida ko'plab kitoblar, risolalar yozilishiga qaramay, bu haqda qisman to'xtalib o'tish lozim. Zero, bu davrga oid adabiyotlarning tahlili ushbu mavzu O'zbekiston tarixi davrida ham kam o'rganilganligidan dalolat beradi. Shunga qaramasdan o'tgan asrning 20–30-yillaridagi tarixiy manbalar matbuotda va shunga o'xshash nashrlarda, to'plamlarda e'lon qilingan bo'lib, ularning mualliflari o'z maqolalarida dastlabki ishchi-dehqon militsiyasining tuzilishi va tarixi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni yozish zarurligini e'tirof etgan holda, buning uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalarni ishlab chiqqanlar [5].

Yurtimizda ichki ishlar organlari faoliyati tarixiga oid tadqiqotlar asosan XX asrning 60-yillari ikkinchi yarmidan boshlanib, ayrim tarixchi va huquqshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, A. Atadjanov, R. Aripov, X. Alimovlar O'zbekiston militsiyasini sobiq ittifoq davlat boshqaruv tizimidagi faoliyatini yoritib berganlar [6].

Huquqshunos olim T.A. Jalilov tomonidan dissertatsion tadqiqotlarida [7] hamda boshqa bir qator ilmiy asarlarida [8] Turkistonda dastlabki ishchi dehqon militsiyasining tashkil etilishi va faoliyati, ixtiyoriy militsiya otryadlarining olib borgan kurashlari va sotsializm davriga o'tishda davlat organi tizimi sifatida O'zbekiston militsiyasining bajargan ishlari va faoliyatini takomillashtirish kabi masalalarini huquqiy jihatdan yoritib berishga harakat qilgan.

Mazkur asarlar va tadqiqotlar mafkuraviy nuqtai nazardan kommunistik metodologiyaga asoslanganligi va muammoning tarixiy ildizlarini o'rganishda yuzakichilikka yo'l qo'yilganligini alohida qayd etish lozim. Ammo shunga qaramay, ushbu mualliflar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar nafaqat respublikada, balki butun sobiq Ittifoq hududida militsiyaning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan ma'lumotlar keltirilganligi bilan qimmatlidir.

Mazkur davrda militsiya shaxsiy tarkibini tayyorlash va qayta tayyorlashga alohida e'tibor berildi. Militsiyaning ko'p qirrali faoliyati, jinoyatlarning oldini olish usullarini tinimsiz takomillashtirib borilishi va tartibbuzarlarni fosh qilish xodimlardan fan va texnikaning turli sohalarini bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lishni talab qilar edi.

Shu sababli 1935-yili Qo'qondagi ishchi-dehqon militsiyasi katta boshliqlar tarkibini tayyorlash O'rta Osiyo maktabi va Samarqanddagi o'rta militsiya boshliqlari tarkibini tayyorlash maktablari tugatilib Toshkent shahriga ko'chirildi va u Toshkent katta militsiya boshliqlari tarkibini tayyorlash maktabi deb o'zgartirildi. Ushbu maktabda O'zbekiston Respublikasi uchun malakali kadrlar tayyorlash bilan bir qatorda Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston kabi boshqa ittifoqdosh respublikalar uchun ham malakali militsiya kadrlarini tayyorlab berardi [9].

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi militsiya xodimlarining mamlakat ichkarisidagi vazifalarini nihoyatda ko'paytirishiga qaramasdan O'zbekiston militsiyasining ko'plab xodimlari chaqiriq bilan va ko'ngilli ravishda armiya safiga qo'shildilar. Jumladan, Samarqand viloyati militsiya idoralaridan 149 ta xodim frontga ketdi [10]. Toshkent militsiya maktabi kursantlarining 50 foizi, komandir-o'qituvchilar tarkibining 30 foizi o'zbek milliy diviziyasi, shuningdek general Panfilov diviziyasi saflarida jang qildilar [11].

Frontga birinchi bo'lib ketgan ko'ngillilar orasida Toshkent militsiya maktabi boshlig'ining siyosiy ishlar bo'yicha o'rinbosari T.Boymurzaev, maktab yetakchi tashkilotining kotibi M.D.Mesh, o'qituvchi T.Kunashboev va boshqalar bor edi [11-32]. Urush sharoitida shaxsiy tarkibning qisqartirilishi jiddiy qiyinchilik tug'dirardi, bu qiyinchiliklarni yengish uchun militsiya organlarini to'ldirish yuzasidan shoshilinch choralar ko'rish lozim edi. Shu sababli O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarlari kengashining 1941-yil 27-iyundagi buyrug'i qabul qilindi. Unga muvofiq, Toshkent militsiya maktabida tahsil olayotgan 68 ta 2 kurs kursantlariga bitirganlik haqida hujjatlarini berish va o'qish muddati ikki yildan 9 oyga qisqarganligi qayd etilgan edi [12].

Shuningdek, O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarlari kengashining 1941-yil 30-iyundagi buyrug'iga muvofiq mehnat ta'tilida bo'lgan xodimlar chaqirib olindi va barcha militsiya xodimlari kuchaytirilgan jangovar holat tartibiga o'tkazildi, 12 soatlik ish vaqti belgilandi [13]. (aslida harbiy holat davrida barcha militsiya xodimlari qancha mehnat qilish lozim bo'lsa, tun-u kun xizmatni olib bordilar).

Ko'p hollarda militsiya saflari harbiy komissarliklar orqali, yarador bo'lib frontdan qaytib kelgan kishilar, shuningdek sog'ligi va yoshi tufayli armiyada xizmat qilishi cheklangan shaxslar hisobiga to'ldiriladi edi.

Urush yillarida militsiya organlaridan frontga ketgan erkaklar o'rniga xotin-qizlar kelishdi. Masalan, 1942-yildan 1945-yilgacha Toshkent militsiya maktabining kursantlar tarkibi ma'lum darajada xotin-qizlar hisobiga to'ldirilib, ularning salmog'i maktab kursantlari umumiy sonining 30-60 foizini tashkil qilardi [11-34].

Urush yillari Toshkent militsiyasida xotin-qizlar har qachongidan ko'proq bo'ldi. Militsiyada xizmat qilish uning barcha xodimlaridan katta kuch-g'ayrat sarflashni, yuksak ma'naviy ruhga ega bo'lishni, nihoyatda halol va intizomli bo'lishni talab qilardi.

Mazkur tahlikali davrda, militsiya xodimlari jamoat tartibini ta'minlab jinoyatchilikka qarshi keskin kurash olib boribgina qolmay, front ortini dushmanning qo'poruvchilik harakatlaridan ham qo'riqlashi lozim bo'lgan. Shuningdek, elektrostansiya, ko'priklar, telefon, telegraf aloqalari, harbiy sanoat qurilishida xavfsizlikni ta'minlash bilan birgalikda harbiy holat vaqtida komendantlik soatlari joriy qilinganda kunduzgi va tungi patrul soqchiligi, shubhali shaxslarning hujjatlarini tekshirish, pasport rejimini o'tkazish kabi vazifalarni bajarishi kerak edi [14]. O'sha davr militsiya xodimlaridan yuksak hushyorlik, tajriba, tezkor qarorlar qabul qilish, malaka talab qilinardi.

Urushdan keyingi yillarda ichki ishlar organlarida banditizmga qarshi kurash bo'limlari tugatilib, ularning o'rniga uchastka operativ vakillari lavozimlari joriy etildi. Shuningdek, davlat avtomobil nazorati, yong'indan saqlash bo'limlari, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalariga e'tibor kuchaytirildi. Shu davrda jinoyatchilikka qarshi kurashni ilmiy asosga qo'yish va unda fan-texnika yutuqlaridan foydalanish maqsadida joylarda hisob-registratsiya bo'limlari va ilmiy-texnika bo'linmalari tashkil etildi.

1959-yil 2-martda "Mehnatkashlarning mamlakatda jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki to'g'risida" qaror qabul qildi [15]. Mazkur qarorga asosan, shu yildan boshlab militsiyaga "yordamlashish brigadalari" tashkil etilib jinoyatchilarni qidirib topishga, kissavurlik va velosiped olib qochish kabi hollarga qarshi kurashga shuningdek port, vokzal, aeroport, jamoat joylarda ommaviy tadbirlar o'tkazish jarayonlariga keng jalb etila boshlandi. Ayrim oblastlarda militsiyaga yordamlashish brigadalari sotsialistik mulkni muhofaza qilish bo'yicha doimiy ish olib boruvchi komissiyalar qilib qayta tashkil etildi [16].

Nizomlarda ko'ngilli xalq drujinalari ilg'or ishchilar, xizmatchilar, kolxozchilar, studentlar va pensionerlardan tashkil etilishi ko'rsatib o'tildi. Huquqlarni buzishning oldini olish, har tomonlama tarbiyaviy ish olib borish ular faoliyatining asosiy mezonini qilib belgilandi.

Drujinachilar qo'liga "DND" (Dobrovolno narodnaya drujina –ko'ngilli xalq drujinasi) deb yozilgan qizil lenta, xamda ko'kragiga "Xalq drujinachisi" degan nishon taqildilar. Ular jamoat joylarida navbatchilik, ko'chalarda patrullik qildilar, bezorilik, chayqovchilik, nazoratsizlikka qarshi kurash bo'yicha reydlarda qatnashdilar. Mamlakat fuqarolarining osoyishta yashashlari, ishlashlari, dam olishlariga halaqit berayotganlarga qarshi faol kurash olib bordilar.

Manbalarga tayanganda 1961–1970-yillarda Butunittifoq bo'yicha ko'ngilli drujinachilar soni 14 millionga yetganini ko'rish mumkin [17].

Birgina 1965-yilda Ittifoqda 4,5 millionga yaqin bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatgich 4,700 dan ortiq ko'ngilli xalq drujinasi, 110 mingdan ortiq drujinachilar faoliyat olib borganlar [18].

Sovet hukumati tomonidan 60-yillarning boshlarida militsiyaning obro'-e'tiborini oshirish, uning uchun me'yoriy bazani takomillashtirish va mamlakatda huquq-tartibotni mustahkamlash va jinoyatchilikni, uni keltirib chiqargan barcha sabablarni tugatish masalalari yuzasidan sovet partiyasi dastur yo'l-yo'riqlarining qabul qilinishi militsiya organlarida tashkiliy-partiyaviy ishlar saviyasini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi. Biroq militsiya siyosiy xodimlari shtat kategoriyasining yo'qligi militsiya shaxsiy tarkibini kommunistik ruhda tarbiyalash va operativ-xizmat faoliyatining samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarini hal qilishni ma'lum darajada qiyinlashtirib yubordi. Shuning uchun ham Markaziy Kengash militsiyasi saflarida siyosiy xodimlar lavozimini tiklash to'g'risida qaror qabul qildi [19].

O'zbekiston Markaziy Kengashining 1965-yil 11-sentabrdagi qaroriga muvofiq, respublikaning 50 dan ortiq xodimiga ega bo'lgan shahar, rayon militsiya organlarida 1965-yil 1-oktabrdan boshlab boshliqlarning siyosiy-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari lavozimi joriy etildi [15-195].

Shundan so'ng respublika va Qoraqalpog'iston ASSR jamoat tartibini saqlash vazirligida, viloyat jamoat tartibini saqlash boshqarmalarida, Toshkent shahar militsiya boshqarmasida, militsiyaning yo'l bo'limida siyosiy tarbiyaviy ishlar bo'yicha instruktorlik guruhlarini tuzildi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Kengashining "O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi to'g'risida"gi Nizomi 1973-yil 17-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlandi [20]. Mazkur Nizomda militsiyaning Ichki ishlar vazirligi tizimining tarkibiy qismi sifatidagi va respublika, o'lka, oblast, okrug, shahar, rayon Kengashlariga hamda ularning ijroiya komitetlariga bo'ysunadigan organ sifatidagi huquqiy maqomi aniq belgilab berildi. Militsiyaning vazifalari va uning jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi huquqlari aniq va puxta ko'rsatib berilganligi katta ahamiyat kasb etdi. Shunga qaramasdan militsiya organlari strukturasi va shtatlarini takomillashtirish, joylarda kadrlar yetishmasligiga barham berish, qobiliyatli kadrlar bilan to'ldirish yuzasidan anchagina ishlar amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda, bu davrda yuqori malakali militsiya kadrlarini tayyorlash tizimida jiddiy o'zgarishlar qilindi. SSSR Ministrlar Kengashining qaroriga muvofiq, SSSR Ichki ishlar vazirligining oliy maktabi Toshkent sirtqi ta'lim fakulteti bazasida SSSR Ichki

ishlar vazirligining Toshkent oliy maktabi tashkil etildi. Bu maktab kunduzgi va sirtqi bo'limlardan iborat edi.

1978-yil SSSR Ichki ishlar vazirligi tomonidan "Xizmat kiyimini kiyib yurish qoidalari" nomli kitob nashr etildi. Mazkur kitobda generallar, rahbarlar, o'rta boshliqlar, safdorlar, kursantlar shuningdek ayollar xizmat kiyimini kiyib yurish tartib qoidalari belgilab berilgan edi [21].

1980-yillarning ikkinchi yarmida qayta qurish va oshkoralik ichki ishlar organlari faoliyatida ham muhim o'rin egalladi. Afsuski, bu jarayonlar hamisha ham yengil va bir tekis kechmadi. "Markaz"ga butunlay bo'ysungan respublika militsiyasi mustaqil rivojlana olmas edi. Uning siyosatini, strategiyasi va taktikasi, ko'rsatmalari "Yuqori"dan aniqlab berilar edi. Markaz respublika ichki ishlar organlarini kadrlar bilan mustahkamlash ishida go'yoki "respublikaning iltimosiga binoan" 1984-89-yillarda O'zbekistonga 231 kishi yubordi. Ular asosan rahbarlik lavozimlariga tayinlandi. Shu vaqt ichida ichki ishlar bo'limlarining saflaridan 1981-85-yillarning o'zida 3000 dan ortiq mahalliy xodimlar bo'shatildi. Ularning ko'plari aybi isbotlanmagan bo'lsa-da jinoiy javobgarlikka tortildi. Respublika ichki ishlar organlarining hech qanday aybi bo'lmagan bir qancha rahbar xodimlari qismati ham shunday bo'ldi. Bu esa pirovard natijada respublika ichki ishlar organlari xodimlari kasb mahoratining pasayib ketishiga, binobarin jinoyatchilikka qarshi kurash natijalariga salbiy ta'sir qildi [22].

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ichki ishlar organlarida ham islohotlar bosqichma-bosqich o'tkazilganligi kuzatiladi.

Dastlabki bosqich 1991–1999-yillarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu davrda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida"gi 270-sonli qarori [23] bilan tasdiqlandi. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 8-yanvardagi "Ichki ishlar organlarida xizmat o'tashning vaqtinchalik nizomini tasdiqlash to'g'risida"gi 16-sonli qarori [24] va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solina boshlandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning joylardagi xizmatlari huquqni muhofaza qilish idoralari tizimiga kiritildi, Ichki ishlar vazirligi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida"gi Nizomga asosan hamda Konstitutsiya va Mustaqillik deklaratsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organi hisoblanishi belgilandi.

Ikkinchi bosqich, 1999–2001-yillarni o'z ichiga oladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash Konsepsiyasi to'g'risida"gi [25] qarori bilan respublikada tinchlik va osoyishtalikni saqlash, mustaqilligimizni asrash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimida tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi. Mazkur konsepsiya asosida jamiyatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlovchi yangi tizimni shakllantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va uning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 21-apreldagi "Kriminal, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va narkotrafikka qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida"gi, 2001-yil 7-maydagi "Jinoyatchilikka qarshi kurashda Ichki ishlar vazirligining tergov

xizmatlari rolini kuchaytirish haqida”gi, 2001-yil 15-maydagi “Yo’l harakati xavfsizligini ta’minlash choralari to’g’risida”gi, 2001-yil 31-maydagi “O’zbekiston Respublikasida patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash faoliyatini takomillashtirish choralari to’g’risida”gi, 2001-yil 6-iyundagi “Jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktika xizmati rolini kuchaytirish choralari to’g’risida”gi, 2001-yil 25-iyundagi “O’zbekiston Respublikasida yong’in xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari shular jumlasidandir [26]. Mazkur bosqichda ichki ishlar organlarining moddiy texnika bazasi va sohaviy xizmatlar bilan hamkorligi takomillashtirildi xamda xodimlarni moddiy rag’batlantirish va ijtimoiy-huquqiy himoyalashga e’tibor qaratildi.

To’rtinchi bosqich, 2004-2016-yillarni o’z ichiga oladi. Bu davrda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2004-yil 19-iyul farmoni Respublikada jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil qilishida ijobiy ahamiyatga ega bo’ldi. O’tkazilgan islohotlar Ichki ishlar organlari faoliyatida tub yangilanishlar davri deb atash mumkin. Chunki ushbu farmon asosida ichki ishlar organlari tizimida kadrlar tayyorlash hamda xizmat qilayotgan xodimlarni moddiy rag’batlantirish va ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ichki ishlar idoralarida mutaxassislar tayyorlovini takomillashtirish choralari to’g’risida”gi 2004-yil 23-sentabr qarori, hamda “O’zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarini moddiy rag’batlantirish va ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2004-yil 4-oktabr qarorlari qabul qilindi [27].

Ushbu me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ichki ishlar organlari uchun “jinoyatlarning oldini olish faoliyati”, “tezkor-qidiruv faoliyati”, “tergov faoliyati”, “ekspert-kriminalistik faoliyat” bo’yicha ofitserlar, “jamoat xavfsizligi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida boshqaruvni tashkil etish” mutaxassisligi bo’yicha rahbar kadrlarni tayyorlaydigan 1 yillik Oliy akademik kurs va bir necha mutaxassislik (8 ta) yo’nalishlari bo’yicha serjantlar tarkibini tayyorlash vazifalari belgilab berildi.

Beshinchi bosqich – 2016-yil 16-sentabrdan boshlandi. Chunki bu kunda O’zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to’g’risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur davrga qadar ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatini tartibga soluvchi yaxlit huquqiy mexanizm yo’q edi. Bu qonun ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, mahalliy hokimliklar, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari bilan hamkorligini yanada takomillashtirishga xizmat qildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan so’nggi yillar davomida ichki ishlar organlari tizimining faoliyatini tubdan takomillashtirish borasida keng ko’lamli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu sohani tartibga soluvchi normativ huquqiy baza jiddiy takomillashdi, qator qonun, farmon, qarorlarning qabul qilinishi shular jumlasidandir.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Bugungi kunda eng katta masala, bu – ichki ishlar tizimining quyi bo’g’inini mustahkamlashdan iboratdir” [28]. Shuningdek: “Hozirgi kunda ichki ishlar organlarining o’ta markazlashgan holda joylashuvi ularning o’z vazifalarini samarali hal qilishiga imkon bermayapti. Bu bir tomondan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligi pasayishiga olib kelayotgan bo’lsa, boshqa tomondan aholiga o’z muammosini hal qilishda noqulaylik tug’dirmoqda. Biz ichki ishlar organlari xodimlarini

xalqqa yanada yaqinroq qilish maqsadida xodimlarning asosiy qismi bevosita joylarda kerak bo'lsa, har bir sektor hududida xizmat olib borishini ta'minlashimiz kerak" [29], – deb ta'kidlagan edi. Shu yerda aytib o'tish joizki, "Gellap" ("Gallup") xalqaro tadqiqot institutining "Global qonun va tartib" bo'yicha yillik butunjahon reytingi e'lon qilindi. O'zbekiston ushbu reytingda 100 balldan 92 ball to'plab, dunyoning eng xavfsiz mamlakatlari top 10 taligiga kiritildi. Albatta, bunday natijaga erishishda, jamiyatimizda qonun va adolat ustuvorligini, jinoyatga jazo muqarrarligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan so'nggi yillarda ko'rilgan chora tadbirlar ham, ayniqsa e'tiborli hisoblanadi. Avvalambor, ushbu vazifalarni samarali bajarish maqsadida tizimning faoliyati tubdan takomillashtirildi. Asosiy e'tibor mahallalarda kriminogen vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun quyi bo'g'inni kuchaytirishga qaratildi. Tayanch punktlari va profilaktika inspektorlarining soni ko'paytirildi. Ular, o'z navbatida, xizmat uy-joylari bilan ta'minlandi, imtiyozli kreditlar asosida shaxsiy "Matiz", "Spark" va "Neksiya-3" avtomashinalari berildi. Bundan tashqari, jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida fuqarolarning faolligini oshirish, hududda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasidagi ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida "Jamoatchilik nazorati maskanlari" hamda "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlari tashkil etilib faoliyat yuritib kelmoqda.

Bundan tashqari, kelgusida xodimlarni kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, ular tomonidan fuqarolarga sifatli, professional xizmat ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida, kadrlarni tayyorlash, o'qitish va malaka oshirish borasida ham butunlay yangi tizim asosida ishlar tashkil etildi. Ichki ishlar vazirligi bugungi zamon sur'atida yangicha xislatlarga ega turli o'zgarishlarga moslashuvchan, tezkor hamda optimal qarorlar qabul qila oladigan, tizimli va tanqidiy fikrlovchi, liderlik, vaqtni boshqarish va tashabbuskorlik kabi ko'nikmalariga ega kadrlarga ehtiyoji vujudga kelgan. Shu sababli so'nggi yillarda mazkur tizimda kadrlarni tayyorlash siyosati tizimi tubdan takomillashtirildi.

Buning zamirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga tashrifi asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. Tashrifda vazirlik Akademiyasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladigan loyihalar ko'zdan kechirildi. Jumladan:

- professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish;
- ta'lim jarayonini izchil tashkil etish;
- nomzodlarni ta'limga maqsadli tayyorlash;
- xodimlar malakasi va sohaviy xizmatlar faoliyatini baholash;
- yangi innovatsion ta'minot bo'yicha fond tashkil etish va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash shular jumlasidandir.

Zero tashrif davomida aytilganidek, Akademiya bu oddiy o'quv yurti, kadrlar, hattoki, rahbar kadrlarni tayyorlaydigan ta'lim maskanigina emas, u yangicha va mustaqil tafakkur shakllanadigan, o'zimiz to'plagan va xorijiy mamlakatlarning turdosh ta'lim maskanlarida to'plangan ilg'or tajribalar o'rganiladigan, tahlil qilinadigan va tahsil beriladigan markazga aylanishi kerak. Chunki, Prezidentimiz haqli ravishda ta'kidlaganlaridek, "Yangicha va mustaqil fikrleydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o'zgarishi yuz bermaydi".

Yuqoridagilarga asosan, ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, shuningdek, kuch va vositalarning samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibiga quyidagilarni nazarda tutuvchi uzluksiz o'quv karyera jarayoni tizimi joriy etildi:

*Birinchi*dan, ichki ishlar organlari rahbarlar tarkibining tegishli lavozimlariga tayinlanishi uchun Akademiya magistraturasida o'qish shartligi;

*Ikkinchi*dan, xodimlarga maxsus unvonlar berilishining xamda safdor va serjantlar tarkibidagi xodimlar ofitserlik lavozimlariga tayinlanishining asosiy talablaridan biri sifatida ularning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qitish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tahliliga tayanib, shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatiga yangi tartiblar va mexanizmlarning joriy etilganligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, "Xalq manfaatlariga xizmat qilish"ni so'zsiz bajaradigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirish borasidagi chora-tadbirlarning natijasi o'laroq, ichki ishlar organlarining xalqparvar tizimga aylanib borayotgani, xalq ishonchi va mehrini qozonayotganligining yorqin namunasi bo'lib hisoblanadi. Ularning faoliyati, azm-u shijoati har qachongidan ham yuqori baholanib, xalqimizning yuksak hurmatiga sazovor bo'lmoqda, xodimlarimizning o'zi esa davlatimiz va jamiyatimiz g'amxo'rlikini amalda har tomonlama chuqur his etmoqdalar. "Dunyoda Yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi" [30]. Shunday ekan Yangi O'zbekistonning ichki ishlar organlari tizimi ham yangilanib, takomillashib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Samarov, Qurolli Kuchlar tizimining feminizatsiyalashuvi: rivojlanishi o'ziga xosligi va ijtimoiy mexanizmi (O'zbekiston Qurolli kuchlar misolida) – falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: 2005. – B.12.

2. Yaso – turk-mo'g'ul xalqlari orasida amalda bo'lgan qonun-qoidalar; Chingizxon davrida joriy etilgan. Temur tuzuklari / Forschadan A.Sog'unuy va H. Karomatov tarj.; A.Ahmedov tahr. ostida... – Toshkent: O'zbekiston nashr., 2013. – B. 106. Yana qarang: H.B.Boboev, O'zbekistonda XIV- XV asrlarda siyosiy va huquqiy ta'limotlar. Yu.f.d. diss... avtoref. –T., 1993.

3. Temur tuzuklari ... Bozor ahli – harbiy yurishlar vaqtida o'rdu atrofida savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lgan kishilar.Ular askarlardan o'lja tushgan mollarni arzon bahoda sotib olish va o'z galida askarlarning ehtiyojiga zarur bo'lgan narsalarni sotish uchun doimo lashkarlarga hamroh bo'lganlar. Askarlarning o'zlari ham fursat kelganda oldi-sotdi bilan shug'ullanganlar. – B.122.

4. Sh O'ljaeva,. Amir Temur va Buyuk ipak yo'li // Buyuk ipak yo'li va Farg'ona vodiysi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent. 2004. B.175.

5. "Raboche-krestyanskaya militsiya" jurnali RSFSR Militsiya Bosh boshqarmasining taklifi bilan 1922-yil noyabr oyidan boshlab chiqarila boshlagan (1

yilda 12 marta). ИХК kollegiyasining 1925-yil yanvardagi qaroriga asosan jurnal nomi “Administrativnyy vestnik” deb o‘zgartirilib, u 1930-yilgacha faoliyati ko‘rsatgan: Петкар И. Историческая справка, необходимая для создания рабоче-крестьянской милиции // Рабоче-крестьянская милиция. 1924. № 6. –С. 11-15.; Курский Д. Милиция в прошлом и настоящем // Административный вестник. 1925. № 1. –С.34-36.; Рыскулов Т. Революция и коренное населения Туркестана. Сборник статей, докладов, речей и тезисов с предисловием автора. –Т., 1925.; Бауман В. Борьба за власть Советов в Ташкенте. –Т., 1922.; Ходжаев Ф. Истории революции в Бухаре. –Т., 1926.; Икрамов А. Итоги реформы и перспективы ее закрепления. –Т., 1925.; Красная книга ВЧК. Том I – II, М., 1989г.

6. Атаджанов А. Организация и деятельность рабоче-крестьянской инспекции в Туркестанской АССР (1920-1924гг.). Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Т., 1966.; Арипов Р. Из истории госбезопасности Узбекистана (1917-1934гг.). Автореф. дисс... канд. юрид. наук. – Т., 1967.; Алимов Х. Административная деятельность милиции Узбекской ССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945гг.). Автореф. дисс... канд. юрид. наук. – Т., 1972.; Джалилов Т.А. Создание рабоче-крестьянской милиции в Туркестане и ее деятельность по укреплению советской власти (1917-1924 гг.). Автореф. дисс... канд. юрид. наук. – Т., 1964.; Он же Милиция Узбекистана в системе органов советской социалистического государства и ее деятельность в период перехода к социализму. Автореф. дисс... докт. юрид. наук. – Т., 1971.

7. Джалилов Т.А. Создание рабоче-крестьянской милиции в Туркестане и ее деятельность по укреплению советской власти (1917-1924 гг.). Автореф. дисс... канд. юрид. наук. – Т., 1964.; Он же Милиция Узбекистана в системе органов советской социалистического государства и ее деятельность в период перехода к социализму. Автореф. дисс... докт. юрид. наук. – Т., 1971.

8. Джалилов Т.А. На страже народных интересов (Из истории борьбы советской милиции за укрепление власти советов в Туркестане в период 1918 – 1924 гг.). Госиздат УзССР, Ташкент. 1963.; Он же. Верные отчизны. Из истории рабоче-крестьянской милиции в Туркестане (1917-1924 гг). издательство «Узбекистан». Ташкент. 1968.; Он же Из истории милиции Хорезма и Бухары. Ташкент, 1970.; Он же Из истории рабоче-дехканской милиции Узбекистана. Ташкент. 1970.; Он же О некоторых особенностях создания и развития органов милиции в советских республиках Средней Азии (1917-1924 гг). – Труды/Ташкентская высшая школа МВД СССР, 1975. вып. 7. стр. 28-35.

9. История Советской милиции. Т.1., М., 1977. стр. 322.

10. Архив УВД Самаркандского Облсполкома, д. 1, за 1941 г., л. 44.

11. Ташкентская школа милиции. Ташкент. Изд-во ТШМ, 1964, с. 31.

12. Архив МВД Уз. ССР, ф. 29, оп. 4, д. 14, л. 192.

13. Архив МВД Уз. ССР, ф. 29, оп. 3, д. 32, л. 75.

14. Положение о военных трибуналах в местностях, объявленных на военном положении, и в районах военных действий. Ведомости Верховного Совета СССР. 1941. № 29. с.34.

15. История Советской милиции. Т.2. М.-1977. –С. 177.

16. Действительно народная... «Юридическая литература». М. 1977. С.344.

17. Веремеенко И.И. Оперативные отряды добровольных народных дружин. М., 1977. ст. 76.
18. Postda gazetasi. 1965 yil 18 oktyabr.
19. Щелоков Н.А. Советская милиция. М., 1971, с. 156.
20. Положение о Министерстве внутренних дел Узбекской ССР. – Утверждено постановлением Совета Министров Узбекской ССР от 17 сентября 1973 г. – Объявлено приказом МВД УзССР № 411- 1973 г.
21. МВД СССР «Правила ношения формы одежды милиции». Под ред. Министром внутренних дел СССР генералом армии Н.А.Щелоковым. Военное издательство Министерства обороны СССР. – М. – 1978. С. 164.
22. Almatov Z. Xalq xizmatida (kirishi soʻzi oʻrnida) // Xalq xizmatida 75 yil. – T.: Oʻz-n., 1992. – B. 18.
23. Ўз.Р. МДА М-37 Р-1. й/ж 126; 36-в.
24. Ўз.Р. МДА М-37 Р-1. й/ж 155; 216-в.
25. Maʼmuriy huquq: Darslik / Н.Т. Odilqoriev, I.Ismailov, N.T. Ismailov va boshq. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – 572 б.
26. A.Sattorov, Ichki ishlar idoralari tizimidagi islohotlarning samarasi // Oʻzbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini liberallashtirishning asosiy yoʻnalishlari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2007 yil 12 dekabr). –T.: IIV Akademiyasi. 2007. –B.48.
27. Пулатов Ю.С. С чего начинается реформирование органов внутренних дел // Хуқуқ – Право – Law. – 2004. – № 4. С.80.
28. <https://daryo.uz/k/2017/11/17/shavkat-mirziyoyev-hozirgi-kunda-eng-katta-masala-bu-ichki-ishlar-tizimining-quyi-boginini-mustahkamlashdan-iborat/>.
29. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. 2017-yil 10-noyabr.
30. Yangi Oʻzbekiston demokratik oʻzgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. // Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi Oʻzbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. – 2021. – 17-avg.